# Talabalar ligasida

Toshkent shahridagi Xalqaro oliygohlari talaba-yoshlari oʻrtasida mini-futbol boʻyicha “TALABALAR LIGASI” sport musobaqasi boʻlib oʻtdi. Oʻzimizning “Irrigator” terma jamoasi gʻolib boʻlgani bois barcha qadrli ustoz va murabbiylar dilidan ushbu istaklar kechgani aniq. "Mazkur bellashuvda faxrli I - oʻrinni qoʻlga kiritib, chempionat gʻolibi boʻlganingiz bilan institutimiz nomidan chin koʻngildan tabriklaymiz! Sizlar qoʻlga kiritgan bu gʻalaba butun institutimizga cheksiz quvonch bagʻishlab, TIQXMMI talabalarining qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir bor koʻrsatdi. Bu ulkan zafar, hech shubhasiz, mamlakatimizdagi millionlab yoshlarni mardlik va matonat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga ulkan hissa qoʻshadi. Barchangizga sihat-salomatlik, kuch-gʻayrat, jonajon Oʻzbekistonimizning shon -shuhratini dunyoga tarannum etishga doimo yutuq va zafarlar yor boʻlishini tilaymiz." Ushbu istaklar til uchidan emas, balki dil tubidan izhori qalb oʻrnida taralayotganini sezmaslik mumkin emas.

**“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mudiri M.Norqobilov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**